

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN PAXTACHILIK FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Paxtachilik fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Paxtachilik

1. G'o'zaning kelib chiqishi, tarqalishi va tarixi;
2. G'o'zaning morfologik va biologik xususiyatlari;
3. Paxtachilikda nav almashinishi va asosiy g'o'za navlarining tavsifi;
4. G'o'za agrotexnikasi;
5. Paxtachilikda energiya mablag' va resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	G'ozaning kelib chiqishi, tarqalishi va tarixi	G'ozaning kelib chiqishi, sistematikasi, yovvoyi va madaniy turlari, kenja turlari haqida ma'lumotlar, g'ozaning ahamiyati, tarqalishi, g'oz tropik ya'ni yilning eng sovuq oylarida ham havo harorati +18 gradusdan past bo'lmaydigan mintaqalardan kelib chiqqanligini bilishi, g'ozaning yer yuzida tarqalish tarixi, yer sharining geografik kengliklarida g'ozaning past bo'yli ertapishar formalarini paydo bo'lishi, keng tarqalishini bilish, farqlash hamda hayotiy vaziyatlarda tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.	10 %	4 ta
2	G'ozaning morfologik va biologik xususiyatlari	G'ozaning tashqi tuzilishi, morfologiyasi, o'simlikning generativ va vegetativ organlarini, g'ozaning ildizi, poyasi, bargi, shonasi, gul tuzilishi, mevasi va urug'i to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, g'ozaning biologik xususiyatlari – issiqlikka bo'lgan talabi, namga bo'lgan talabi, tuproqqa bo'lgan talabi va ozuqa moddalarga bo'lgan talabi hamda boshqarilmaydigan , qiyin boshqariladigan va boshqariladigan omillarni tahlil qilish. O'simlikning o'sishi, rivojlanishi va hosil organlarining shakllanish qonuniyatlari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	55 %	24 ta
3	Paxtachilikda nav almashinishi va asosiy g'oz navlarining tavsifi	Paxtachilikning asosiy rivojlanish tarixi, nav almashinuvi, turli davrlarda ekilgan va rayonlashtirilgan g'ozaning seleksion navlarining nomlari, bugungi kunda reyestrda kiritilgan o'rta tolali va ingichka tolali navlarni tavsiflarini o'rganish va bu navlarni tahlil qilish ko'nikmalarga ega bo'ladi.	7,5 %	3 ta
4	G'oz agrotexnikasi.	Paxtachilikda almashlab ekish, tuproqqa ishlov berish, ekish , g'oz parvarishni ilmiy asosda tashkil etish va begona o't va kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash bo'yicha nazariy va amaliy bilim oladilar. Paxtachilik sohasidagi fan amaliyotidagi yutuqlar innovatsion texnologiyalar , xorijiy	17,5 %	7 ta

		davlatlar tajribasi va so'nggi ma'lumotlarni tahlil qilish bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.		
5	Paxtachilikda energiya mablag' va resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash	Paxtachilikda energiya mablag' va resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash, suvdan samarali foydalanishi, sug'orishning intensiv zamonaviy usullarini qo'llash, tuproqqa kompleks ishlov berish, tuproqni ag'darmasdan ishlov berish, qishloq xo'jaligi ekinlarini shudgorsiz ang'izga ekishni joriy etish ko'nikmalarga ega bo'ladi.	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	10 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	70 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Azizov B. Paxtachilik. Fan ziyosi nashriyoti 304 bet. Darslik. Toshkent 2021 y.
2. Sulaymonov B.A., va boshqalar. Fermer xo'jaliklarida paxtachilikni rivojlantirishning innovatsion agrotexnologiyalari fermerlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent-2019 y
3. Teshaev Sh., Sulaymonov B. Paxtachilik ma'lumotnomasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2016.
4. Ulug'ov Ch. Paxtachilik amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'quv qo'llanma. Fan ziyosi nashriyoti, Toshkent 2021 y.
5. Abduraxmonov U.Z., Teshaev Sh.J., Teshaev F.J. G'o'za ko'saklarining fiziologik yetilishida defoliatsiyaning ta'siri. 2018 y, Navro'z nashriyoti.
6. Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik kartalar 2016-2020 yillar uchun. Toshkent, 2016, I-qism.
7. Xodjaev J.A., Teshaev Sh.J., Xasanova F.M. va bosh. Tomchilatib sug'orish tizimlaridan foydalangan holda paxta xom ashyosini ishlab chiqarish va mashinalar yordamida yig'ib olish bo'yicha namunaviy texnologik kartalar 2019-2023 (qo'llanma).
8. Iminov A.A., Ulug'ov Ch.X. G'o'zada turli mineral o'g'itlar me'yorlari fonida suspenziya qo'llash bo'yicha tavsiyalar. Toshkent 2020 "Navro'z" nashriyoti.